

SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI BOSHQARISHNING STRATEGIK MAQSADLARI VA RIVOJLANISH OMILLARI

Qorabayev Shuxratjon Axmadjonovich

Namangan davlat texnika universiteti

“Menejment” kafedrası

katta o‘qituvchisi

E-mail: korabayevs@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada sanoat korxonalarida investitsion faoliyatni boshqarishning strategik maqsadlari va rivojlanish omillari tadqiq etilgan. Sanoat korxonalarida investitsion faoliyatni samarali tashkil etishning iqtisodiy ahamiyati, investitsiya jarayonlarini boshqarish mexanizmlari hamda investitsion faollikka ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilingan. Korxonalarda investitsion strategiyani takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardoshlikni oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, investitsion faoliyat, sanoat korxonasi, investitsion strategiya, iqtisodiy samaradorlik, innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlik, kapital qo‘yilmalar, investitsion boshqaruv.

Аннотация

В данной статье исследованы стратегические цели и факторы развития управления инвестиционной деятельностью промышленных предприятий. Проанализированы экономическая значимость эффективной организации инвестиционной деятельности, механизмы управления инвестиционными процессами, а также внутренние и внешние факторы, влияющие на инвестиционную активность предприятий. Освещены вопросы совершенствования инвестиционной стратегии, внедрения инновационных технологий, эффективного использования финансовых ресурсов и повышения конкурентоспособности.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная деятельность, промышленное предприятие, инвестиционная стратегия, экономическая эффективность, инновационное развитие, конкурентоспособность, капитальные вложения.

Abstract

This article examines the strategic goals and development factors of investment activity management in industrial enterprises. The economic importance of effective organization of investment activities, mechanisms of investment process management, as well as internal and external factors affecting investment activity are analyzed. In addition, issues of improving investment strategy, introducing innovative technologies, efficient use of financial resources and increasing competitiveness are highlighted. Based on the results of the study, scientific conclusions and practical recommendations were developed to improve the efficiency of investment activities in industrial enterprises.

Keywords: investment, investment activity, industrial enterprise, investment strategy, economic efficiency, innovative development, competitiveness, capital investments.

KIRISH

Globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan iqtisodiy sharoitda sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash investitsion faoliyat samaradorligiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirish hamda korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jahon iqtisodiyoti tajribasi shuni ko'rsatadiki, investitsion faollik yuqori bo'lgan davlatlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sish sur'atlari nisbatan yuqori bo'ladi. Shu bois sanoat korxonalarida investitsion faoliyatni samarali boshqarish va strategik rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda ham sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, investitsion muhitni yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion ishlab chiqarishni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlariga aylangan.

Ayrim sanoat korxonalarida investitsion boshqaruv mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligining pastligi, texnologik eskirish va risklarni boshqarish tizimining rivojlanmaganligi investitsion faoliyat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsion faoliyat va uni boshqarish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, M.Porter o'zining raqobat ustunligi nazariyasida investitsiyalar korxonalarining innovatsion rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili ekanligini ta'kidlaydi[2].

Rossiyalik iqtisodchi olim T.V. Igolnikov investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan metodlarni ishlab chiqqan. Uning ilmiy ishlarida ishlab chiqarish investitsiyalari loyihalarining moliyaviy samaradorligini oshirish bo'yicha aniq takliflar shakllantirilgan [3]. J.Keyns investitsiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida baholab, investitsion faollikning ortishi yalpi talab va bandlik darajasining oshishiga olib kelishini asoslab bergan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.Vahobov, Sh.Xajibakiyev va boshqa tadqiqotchilar investitsion boshqaruvni takomillashtirish sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etganlar.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida dialektik yondashuv, iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik kuzatuv va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Investitsion faoliyat samaradorligini baholashda iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili, ilmiy umumlashtirish va taqqoslash usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat korxonalarida investitsion faoliyatni boshqarishning asosiy strategik maqsadi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va uzoq muddatli raqobat ustunligiga erishishdan iborat.

Sanoat korxonalarida investitsion faoliyat quyidagi strategik yo'nalishlar asosida rivojlantirilmoqda:

- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish;
- innovatsion texnologiyalarni joriy etish;
- eksport salohiyatini oshirish;
- energiya va resurs tejankor texnologiyalarni qo'llash;
- raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish.

Investitsion faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin.

Ichki omillarga korxonaning moliyaviy holati, boshqaruv samaradorligi, innovatsion salohiyat, ishlab chiqarish texnologiyalarining holati, mehnat resurslari sifati kabilar kiradi. Tashqi omillarga esa investitsion muhit, davlatning iqtisodiy siyosati, kredit va soliq tizimi, bozor kon'yunkturasi va infratuzilmalarning rivojlanganlik darajasi kabilarni kiritish mumkin.

O'zbekistonda hududiy sanoatni rivojlantirish va sanoat korxonalarining eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-oktabrdagi PQ-295-sonli "Hududlarda sanoatni jadal rivojlantirish va sanoat korxonalarini eksportga jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori¹ sanoat korxonalarida investitsion faoliyatni rivojlantirishning muhim huquqiy asoslaridan biri hisoblanadi.

Mazkur qarorga muvofiq, 2025-2026-yillarda hududlarda sanoatni rivojlantirishning ustuvor maqsadli ko'rsatkichlari belgilab berilgan. Jumladan, respublika sanoatida hududiy sanoat ulushini 45 foizga yetkazish, hududlarda 34 ta yuqori texnologiyali sanoat loyihalarini amalga oshirish orqali texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizga oshirish hamda 3,5 mingdan ortiq yangi ish o'rinlarini yaratish vazifalari belgilangan. Har bir tuman va shaharda 5 tagacha sanoat "o'sish nuqtalari"ni rivojlantirish mexanizmlarini joriy etish ko'zda tutilgan.

Ushbu chora-tadbirlar sanoat korxonalarida investitsion faoliyatni jadallashtirish, innovatsion ishlab chiqarishni rivojlantirish va hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, yuqori texnologiyali sanoat loyihalarini amalga oshirish sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, eksportbop

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-oktabrdagi PQ-295-sonli "Hududlarda sanoatni jadal rivojlantirish va sanoat korxonalarini eksportga jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-7759270>

mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda ishlab chiqarishning texnologik darajasini yuksaltirish imkonini beradi.

Qarorga asosan, 2026-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvargacha mahalliy sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator iqtisodiy imtiyozlar ham joriy etilishi belgilangan. Xususan, ishchilarning o'rtacha oylik ish haqi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining ikki baravaridan kam bo'lmagan korxonalarda xodimlarni tashish va ovqatlantirish bilan bog'liq xarajatlarning bir qismi ijtimoiy soliq bazasidan chiqarilishi investitsion faollikni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, o'z ehtiyoji uchun gips xomashyosi qazib chiqaruvchi va undan tayyor qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun yer qa'ridan foydalanganlik solig'i stavkasining 50 foiz miqdorida qo'llanilishi qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish hamda investitsion jozibadorlikni oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, mazkur qarorda belgilangan chora-tadbirlar sanoat korxonalarida investitsion faoliyatni samarali tashkil etish, hududiy sanoatni modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirishning muhim iqtisodiy mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

1-jadval.

Namangan viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi [10]

(2025-yil yanvar-dekabr oylari, mlrd so'mda)

Shahar va tumanlar	Jami investitsiyalar	Yangi qurilish	Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish	Boshqa xarajatlar
Viloyat bo'yicha	61 125,3	42 911,8	13 409,6	4 804,0
Namangan shahar	19 780,2	17 495,2	1 870,9	414,1
Mingbuloq	1 943,3	431,8	1 495,3	16,3
Kosonsoy	2 633,9	864,1	182,2	1 587,6
Namangan tumani	3 031,0	1 954,4	543,8	532,9
Norin	2 182,3	1 266,2	573,3	342,8
Pop	9 701,1	7 168,5	2 490,1	42,6
To'raqo'rg'on	6 271,2	3 194,4	2 911,8	165,1
Uychi	3 527,0	2 218,3	1 064,8	243,8
Uchqo'rg'on	1 972,8	1 578,7	160,0	234,1
Chortoq	2 210,8	363,5	1 168,0	679,3
Chust	4 604,4	3 381,2	740,3	482,8
Yangiqo'rg'on	3 267,3	2 995,5	209,1	62,6

Namangan viloyatida xam sanoat korxonalarida investitsion faollikni oshirish va shu orqali ularning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini yuksaltirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda (1-jadval). Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvar-dekabr oylarida Namangan viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 61 125,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, investitsiyalarning asosiy qismi yangi qurilish ishlari hissasiga to'g'ri kelgan. Xususan, yangi qurilish yo'nalishiga 42 911,8

mlrd so‘m investitsiya yo‘naltirilgani hududda yangi sanoat obyektlari, ishlab chiqarish quvvatlari va infratuzilma loyihalarini tashkil etishga katta e‘tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish ishlari uchun 13 409,6 mlrd so‘m mablag‘ sarflanganligi sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni texnologik yangilash jarayonlari jadallashayotganidan dalolat beradi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori investitsiya hajmi Namangan shahri hissasiga to‘g‘ri kelib, jami investitsiyalar hajmi 19780,2 mlrd so‘mni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich viloyat markazida sanoat, xizmat ko‘rsatish va qurilish infratuzilmasining faol rivojlanayotganini anglatadi. Pop tumani (9701,1 mlrd so‘m) va To‘raqo‘rg‘on tumani (6271,2 mlrd so‘m) ham investitsion faollik yuqori hududlar qatoridan joy olgan. Ayniqsa, To‘raqo‘rg‘on tumanida rekonstruksiya va modernizatsiya ishlari uchun yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining yuqoriligi mavjud sanoat korxonalarini texnik jihatdan yangilashga ustuvor ahamiyat berilayotganini ko‘rsatadi.

Chortoq, Uychi, Chust va Yangiqo‘rg‘on tumanlarida ham investitsion jarayonlarning faollashgani kuzatilmoqda. Bu esa hududlarda sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda investitsion faoliyatning muhim omilga aylanayotganini bildiradi.

1-jadval ma‘lumotlari Namangan viloyatida investitsion siyosatning faol olib borilayotganini, sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga qaratilgan investitsion jarayonlar izchil rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Bu esa hududiy sanoatning raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sanoat korxonalarida investitsion faoliyat samaradorligini oshirishda innovatsion rivojlanish muhim o‘rin tutadi. Xususan, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va sun‘iy intellekt asosidagi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi.

Investitsion faoliyatni samarali boshqarishda quyidagi iqtisodiy mexanizmlar muhim hisoblanadi:

- investitsion rejalashtirish tizimini takomillashtirish;
- risklarni boshqarish tizimini rivojlantirish;
- moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish;
- davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish;
- investitsion monitoring va nazorat tizimini kuchaytirish.

Sanoat korxonalarida investitsion faollikning oshishi ishlab chiqarish hajmining ko‘payishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi va eksport hajmining ortishiga xizmat qiladi. Bu esa mamlakat iqtisodiy o‘shishining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida investitsion faoliyatni samarali boshqarish iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini jadallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini

oshirish hamda korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlashning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatgan. Investitsion resurslardan oqilona foydalanish sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish imkonini bergan.

O'tkazilgan tahlillar sanoat korxonalarida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida investitsion strategiyalarni zamonaviy iqtisodiy talablar asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatgan. Xususan, investitsion qarorlarni qabul qilishda bozor kon'yunkturasi, texnologik transformatsiya jarayonlari va global raqobat omillarini hisobga olish korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilgan.

Innovatsion va raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga keng joriy etish investitsion faoliyat samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish hamda mahsulot sifati va mehnat unumdorligini oshirish imkon beradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini rivojlantirish sanoat tarmoqlarining investitsion jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etsdi. Xususan, investitsion muhitning barqarorligi, huquqiy kafolatlarning mustahkamligi va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining rivojlanganligi xorijiy investorlar faolligini rag'batlantiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Investitsion risklarni sug'urtalash tizimini takomillashtirish investitsion loyihalarning xavfsizligini ta'minlash va moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytiradi. Malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy-texnik salohiyatni oshirish hamda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish sanoat korxonalarining investitsion faolligini kuchaytirishda muhim omildir.

Davlat tomonidan investitsion muhitni yaxshilash, soliq va kredit imtiyozlarini kengaytirish hamda sanoat korxonalarini institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish investitsion faollikni oshirishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada investitsion siyosatni kompleks takomillashtirish sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-oktabrdagi PQ-295-sonli "Hududlarda sanoatni jadal rivojlantirish va sanoat korxonalarini eksportga jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-7759270>

2. Porter M. Competitive Advantage of Nations. - New York: Free Press, 1990.

3. Igolnikov T.V. Effektivnost investitsionnyx proektov. Moskva: Finansy i statistika, 2016.

4. Vahobov A., Xajibakiyev Sh. Investitsiyalar iqtisodiyoti. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

5. Schumpeter, J.A. Theory of Economic Development. Routledge, 2017.

6. Mahmudov A. Investitsiya faoliyatini boshqarishda davlat-xususiy sheriklik. Toshkent, "Fan va texnologiyalar", 2021.
7. Sharpe, William F. Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium. The Journal of Finance, 1964.
8. Perlman, M., Li, R. Industrial Economics: Issues and Perspectives. Palgrave Macmillan, 2012.
9. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. - London, 1936.
10. namstat.uz sayti rasmiy statistik ma'lumotlari.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**